
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLINI RO'YXATGA OLISH 2023 YILDA O'TKAZILADI

“Aholini ro'yxatga olish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 fevraldagi PF-5655-sonli Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 11 noyabr kungi “O'zbekiston Respublikasida 2023 yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi.



Qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olish 2023 yil 1 - 25 noyabr kunlari o'tkazilishi rejalashtirilmoqda. Rejaga asosan aholini ro'yxatga olish quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- 1-5 noyabr kunlari – internet jahon axborot tarmog'i orqali aholini ro'yxatga olish (5 kun);
- 6-10 noyabr kunlari – internet jahon axborot tarmog'i orqali ro'yxatdan o'tgan respondentlar va ularning uy manzillari ro'yxatini shakllantirish (5 kun);
- 11-22 noyabr kunlari – aholini ro'yxatga olish varag'i shakllari asosida uyma-uy yurib aholini ro'yxatga olish (12 kun);
- 23-25 noyabr kunlari – har bir hisob uchastkasidagi uy-joy manzillarining 10 foizini tanlanma ravishda nazorat kuzatuvini asosida o'rganish (3 kun).

Oltiariq tumani statistika bo'limi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-06-14 14:12:41